



## TRANSPORT TEKNIK HOLATINI ANIQLASH USULLARI

***Muqimova Davlatxon Karimovna,***

***"Transport vositalari muhandisligi" kafedrasi dotsenti,***

***Astonbekova Mohlaroy Botirjon qizi,***

***"Transport va logistika" fakulteti***

***"Transport vositalari muhandisligi" yo'nalishi 3-kurs talabasi.***

***Andijon mashinasozlik instituti, Andijon shahar, O'zbekiston.***

Uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan, mamlakatimizning salohiyati, qudrati va iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchí ahamiyatga kasb etadigan navbatdagi ustuvor yo'nalish bu asosiy yetakchi sohalarni moderinizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infranuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga moyil loyihalami amalga oshirish uchun faol investitsiyalar siyosati olib borishdan iborat.

Endilikda milliy iqtisodiyotimizning turli yo nalishlarining tarkibiy qismlarni jahon bozori bilan qiyosiy o'r ganish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti-jami sohalar, assotsiatsiyalar, korxonalar, tashkilotlarning yig'indisi bo'lib, ular iqtisodiy tizimga umumiv qonunlar va rivojlanish maqsadlariga asoslangan holda birlashgan [1, 2-5].

Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan avtomobilarimiz jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lishi uchun ularning konstruktsion va ekspluatatsion ishonchliligi xalqaro standartlariga to'la javob beradigan darajada bo'lishi zarur. Avtomobilning ekspluatatsion xususiyatlari nazariyasi uni ishlatish davrida avtomobildan effektiv foydalanish usullarini va konstruktsiyasining ekspluatatsion talablarini qanoatlantirish darajasini xarakterlab beradi. Atomobilning ekspluatatsion xususiyatlarga tortish va tormozlash dinamikasi, yonilg'i sarfining tejamliligi, boshqaruvchanlik, turg'unlik, yo'l tosiquidan o'ta olish xususiyati yurish ravonligi harakat xavfsizligi, puxtaligi, ta'mir qilishning osonligi kabi ko'rsatkichlar kiradi.

2021 yilning yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan avtotransport vositalarining soni 2 955 295 tani tashkil etgan. Bu 2020 yilga nisbatan 14,5% ga ko'p [2, 6-8].

Transport vositasining texnik holati ko'rsatkichlari texnik xizmat ko'rsatish jarayonida muhim o'rin tutadi transport vositasi sozligini nazorat qilish, kerakli sozlash, ta'mirlash ishlari hajmini, texnik resurs yoki navbatdagi texnik xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan buzilishlarsiz ishlash davomiyligini aniqlash imkonini beradi [3, 6, 9, 12].

Bu ko'rsatkichlar yangi transport vositasi ishlay boshlaganidan to buzilish sodir bo'lguncha o'zgaradi. Shuning uchun uning chegaraviy me'yorlarini (ish muddatlarini) bilish va, mabodo, chegaraviy me'yorlar namoyon bo'lsa, transport vositasi ekspluatatsiyasini to'xtatish shart. Bundan tashqari, vaqt o'tishi bilan



me'yorlaming o'zgarish dinamikasini ham bilish lozim, zero, buning natijasida navbatdagi texnik xizmat ko'rsatish va hamroh joriy ta'mirlashgacha bo'lgan resursni aniqlash mumkin.


Ko'p hollarda agregat va mexanizmlarning konstruktsion o'lchamlari (parametrlarini aniqlash uchun ularni qisman yoki butunlay bo'laklarga ajratishga to'g'ri keladi. Lekin agregat va mexanizmlarning texnik holatu parametrlarini boshqacha yo'l bilan, ya ni diagnostik parametrlar yordamida ham aniqlasa bo'ladi.

Masalan, dvigatelning quvvati, moyning sant boshi silindrini kompressiya (ikkinchi taktidagi bosim) va h.k.

Transport vositasining texnik holati parametrlari ekspluatatsiya jarayonida o'zining boshlang'ich qiymatidan ( $Y_0$ ) to oxirgi qiymatigacha ( $Y_{ox}$ ) o'zgaradi (1- rasm). Masalan, tormoz mexanizmi ishlaganda baraban bilan ustqo'yma (ishqalanish qoplamasasi) orasidagi tirkish oshib boradi.

Tormozlanish yo'lining oxirga qiymati ( $S_{Tox}$ ) va unga to'g'ri keladigan texnik holat ko'rsatkichi  $Y_{ox}$  ya'ni 1-oraliq transport vositasi yoki agregatning ishlash qobiliyatini,  $0 < L_i < L_p$ , yoki  $Y_0 \leq Y_i \leq Y_{ox}$  ifoda esa transport vositasining ishlash shartini ko'rsatadi.

2-oraliq transport vositasi yoki aggregatning ishlamasligini, ya'ni buzilganligini ko'rsatadi.



**1-rasm. Texnik holat parametrining o'zgarishi va uning oldini olishga ta'sir etish shakli.**

$Y_0$  – boshlang'ich yoki berilgan texnik holat parametrining qiymati;

$Y_{ox}$  va  $Y_p$  – oxirgi va qabul qilish mumkin bo'lgan (ruxsal etilgan) texnik holat parametrining qiymati;  $Y_i$  - joriy vaqtidagi texnik holat parametrining qiymati;

$L_p$  -texnik holat parametrining oxirgi qiymatigacha ishlash vaqt (yo'l), ya'ni resursi;  $L_o$  - eng qulay texnik xizmat ko'rsatish davriyligi qiymati;

$S_{Tox}$  va  $S_{T_{ox}}$  – tormozlanish yo'lining boshlang'ich va oxirgi qiymati



Transport vositasining ishlash davomiyligi soatlar yoki bosib o‘tilgan yo‘l yordamida o‘lchanadi. Transport vositasining oxirgi texnik holati qiyamatigacha yurgan yo‘li yoki ishlagan soatlari miqdori uning resursi deb ataladi.

Transport vositasi texnik holatini aniq, belgilash va buzilishsiz ishlash resursini prognoz qilish uchun uning har birini alohida tekshirish kerak. Avtokorxona sharoitlarida agregat va mexanizmlarni yechmasdan tekshirish maqsadga muvofiq bunday tekshirish texnik diagnostikalash deyiladi.

Transport vositasining ishlash qobiliyati bu uning belgilangan parametrlar miqdorlarini me’yoriy-texnik hujjatlarda keltirilgan chegaralarda saqlagan holda vazifalarini bajarishidir [3-5, 7, 13-14].

### **Adabiyotlar.**

- [1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli president farmoni. -Toshkent: 2017, 7-fevral.
- [2] [https://t.me/statistika\\_rasmiy](https://t.me/statistika_rasmiy). Ўзбекистон аҳолисига тегишли бўлган автотранспорт воситалари сони 10.05.2021й.
- [3] Кузнецов Э.С., Болдин А..П. ва бошқалар. Автомобиллар техник эксплуатацияси. Дарслик. – Тошкент: “Voris-nashriyot”, 2006. -630 бет.
- [4] Xalilbek o‘g‘li X. E. ICHKI YONUV DVIGATEL DETALLARINI QURUM BOSISHINI TEKSHIRISH //World scientific research journal. – 2023. – Т. 18. – №. 1. – С. 110-115.
- [5] Melikuziev A. et al. IMPROVING THE PERFORMANCE OF THE FUEL INJECTION SYSTEM //Development and innovations in science. – 2022. – Т. 1. – №. 14. – С. 10-14.
- [6] Imomkulov K. B., Mukimova D. K. The motivation parameters of wedge-shaped disk of the machine for preparing plow by flap to sowing //Scientific-technical journal. – 2018. – Т. 1. – №. 3. – С. 145-147.
- [7] Igamberdiev, A. K., Muqimova, D. K., Usmanov, E. Z., & Usmanova, S. D. (2022). Influence of the thickness of the roller discs of the combined machine on the indicators of their work during the processing of plowed lands afterwards. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 954, No. 1, p. 012001). IOP Publishing.
- [8] Igamberdiev A. K., Muqimova D. K. DETERMINATION OF THE RATIONAL VALUES OF THE PARAMETERS OF THE DISC ROLLERS OF THE COMBINED UNIT //Irrigation and Melioration. – 2020. – Т. 2020. – №. 3. – С. 67-72.
- [9] Muqimova D., Nurdinov M. COMPLIANCE WITH RESPONSIBILITY AND WORK REGIMES OF DRIVERS IN LEGAL REGULATORY DOCUMENTS DUE TO ACCIDENTS IN THE TRANSPORTATION OF



INTERNATIONAL GOODS BY TRUCKS //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 15-25.

- [10] Мукимова Д. К. ОБОСНОВАНИЕ ШИРИНЫ МЕЖДУСЛЕДИЯ ДИСКОВ КАТКОВ КОМБИНИРОВАННОЙ МАШИНЫ //European research: innovation in science, education and technology. – 2020. – С. 13-16.
- [11] Muqimova D. et al. LOCATION AND DEVELOPMENT OF THE MAIN NETWORKS OF WORLD TRANSPORT //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 279-284.
- [12] Magdiyev Sh.P., Rasulov H.A. Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash. O’quv qo’llanma. -Toshkent: “Ilm ziyo” nashriyoti. 2011.-207 bet.
- [13] Asatov E.A., Tojiboyev A.A. Ishonchlilik nazariyasi va disgnostikasi asoslari. - Toshkent: Iqtisod -moliya, 2006.-160 bet.
- [14] Muhitdinov A., Sattivaldiyev B., Fayzullayev E., Xakimov Sh. Avtobollar konstruksiyasi asoslari. O‘quv qo’llanma. -Toshkent: “Istiqlol nuri” nashriyoti. 2015.-331 bet.